

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MERO SINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

NAVOIY VA HUSAYN VOIZ KOSHIFIY

Burobiya RAJABOVA

*yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi,
O'z FA O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti*

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804511>

Annotatsiya: Maqolada Navoiyning Koshifiy haqida yozgan ma'lumoti, tarixchi Xondamir tavsifi, shogirdi Vosify xotiralari batafsil o'rganilgan. Husayn Voiz hayoti, ijodi, fazilatlari, Hirot madaniy muhitida tutgan yuksak o'rni ma'lum ma'noda ochiqlangan. Uning "Axloqi Muhsiniy" kitobining yozilishi, unda 40 dan ortiq tushunchalar bayoni, qo'lyozma nusxalari, davriy nashrlariga diqqat qaratilgan. Navoiy "Xamsa"si va Koshifyning "Axloqi Muhsiniy"da poklik, adab, adl, afv, rostlik, farosat, vafo kabi axloqiy tushunchalar bayoni va tasvirdagi o'zaro mushtarak adabiy hodisalar talqin va tahlil qilingan.

Kalit so'z va birikmalar: Tavsif, voiz, ma'viza, madaniy muhit, axloqiy tushunchalar, tafsir, adabiy-tarixiy manbalar, dalillash sa'nati.

Аннотация: В статье подробно изучены сведения Навои о Кошифии, описание историка Хондемира, воспоминания ученика Васифи. Раскрыты основные аспекты жизни, творчества и достоинств ХусайнаВоиза, а также его высокая роль в культурной среде Герата. Особое внимание уделено созданию его книги "Ахлаки Мухсиний", содержащей более 40 понятий, её рукописным копиям и периодическим изданиям. Проведён анализ схожих литературных явлений в изображении и толковании нравственных понятий, таких как чистота, воспитанность, справедливость, прощение, честность, проницательность, верность, представленных в "Хамсе" Навои и "Ахлаки Мухсиний"Кошифии.

Ключевые слова и выражения: описание, проповедник, маъвиза, культурная среда, нравственные понятия, толкование, литературно-исторические источники, искусство аргументации.

Annotation: This article provides an in-depth study of Alisher Navoi's references to Kashifi, the description by historian Khondamir, and the memoirs of Kashifi's student, Vasifi. It highlights the life, works, virtues, and prominent role of Husayn Vaiz in the cultural environment of Herat. Special attention is given to the creation of his book "AkhlakiMuhsiniy", which contains more than 40 concepts, as well as its manuscript copies and periodic publications. The article also analyzes the shared literary phenomena in the depiction and interpretation of moral concepts such as purity, etiquette, justice, forgiveness, honesty, insight, and loyalty, as presented in Navoi's "Khamsa" and Kashifi's "AkhlakiMuhsiniy".

Keywords and phrases: Description, preacher, sermon, cultural environment, moral concepts, interpretation, literary-historical sources, art of reasoning.

Alisher Navoiy bilan bir safda shoir, adib, tarixchi, olim, xattot, voiz, imom, ulamo kabi ko'plab ilm-fan va madaniyat ahli ijod qilishgan va oliyqadr amirning lutf-u marhamatidan bahramand bo'lishgan. Shulardan biri – Husayn Voiz Koshifiydir.

Alisher Navoiy bilan ijodiy hamkorlik qilgan adib dahoga bag'ishlab, "Mavohibi oliya" ("Oliy tuhfalar") asarini yozgan.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Koshifiy haqida Navoiyning “Majolis un-nafois”[1, 120], “Xamsat ul-mutaxayyirin”[2.73], Xondamirning “Xulosat ul-axbor”[9.71-73], Zayniddin Vosifiyning “Badoye ul-vaqoye””[5.159-161] kabi adabiy-tarixiy manbalarda fiqra, lavha, xabar xarakterida qimmatli ma'lumotlar yozilgan. Zamondoshlarining bitiklari bizga Husayn Voizning shaxsi, hayoti, samarali ijodi, Temuriylar Uyg'onish davri Hirot madaniy hayotida tutgan yuksak o'rni, notiqlik san'ati, diniy va dunyoviy ilmlar rivoji, xususan, Islom sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan xabar beradi. O'rganishimizga ko'ra, ular yozgan ma'lumot va tavsiflarda o'zaro mushtaraklik u yozgan tafsir kitoblari, voizlik faoliyati, minbarlarda o'qigan ma'vizalari, ilmi nujum bilan bog'liq bo'lsa, farqli jihatlari esa Koshifiyni shoir sifatida tanishtirish, uning lirkasidan misol keltirishda ko'rindi. Bu kabi ma'lumot Navoiy yozgan fiqrada uchraydi. Yoki adib shogirdining xotira fonida o'z ustozi haqida iliq gaplar yozish uslubini Zayniddin Vosifiy xotiralariga qurilgan hayotiy hikoyalarda o'qiyimiz.

Husayn Voizning boy ijodiy va ilmiy merosi yaxshi saqlangan holda bizga yetib kelgan. Adib asarlarining turli davrda xattotlar tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma nusxalari va davriy nashrlari talaygina. Agar biz uning “Axloqi Muxsiniy” [7.664] asari yuzasidan fikrlaydigan bo'lsak, bu asar hamma zamonlarda juda muhim manba hisoblangan. Unda axloqiy, adabiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy, ilmiy, ma'rifiy, falsafiy, tarixiy kabi qirqdan ortiq tushunchalar – dalillash san'ati bilan tushunarli va sodda tilda bayon qilingan.

Mazkur maqolada Husayn Voiz haqida Navoiy va boshqa ziyoli zamondoshlarining e'tirofga yo'g'rilgan fikrlariga hamda uning ushbu asariga diqqat qaratdik. Qizig'i shundaki, bu asarni Navoiy e'tirof qilgan va Sulton Husayn Boyqaroning o'g'li Muhsin Mirzoga bag'ishlangan. Mazkur bag'ishlov asar muallif nomi bilan birga Muhsin mirzo nomini ham tarix zarvaraqlariga muhrladi. “Axloqi Muhsiniy” kitobining qo'lyozma nusxalari dunyoning ko'plab muzey, kutubxona fondlarida saqlanadi. B.Abduhalimov so'zboshida bergen ma'lumotga ko'ra, “Hirot kitobat san'atining yuksak namunasi bo'lgan kitobning ellikdan ortiq qo'lyozma va toshbosma nusxasi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida ham saqlanadi”. O'rganishimizga ko'ra, mustaqillik davrida institut olimlari asarning ikki marta davriy nashrini amalga oshirishgan, ya'ni, birinchisi, 2010-yilda kitob faksimelesi bilan nashr etilgan. Mazkur nashrga B.Abduxalimov so'zboshi yozgan, A.Madrahimov esa “Kitobat san'atining shoh asari” nomli so'ngso'z bitgan. Unda olim “Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” asari qo'lyozmasi saroy kutubxonasi... nihoyatda e'tibor bilan tayyorlangan noyob kitobdir” deb yuksak baholagan va u haqda Hirot miniatyura maktabida ishlangan o'ndan ortiq miniatyura rasmlarga izohlar berar ekan, “Shubhasiz, bu qo'lyozma rasmlari ustod Kamoliddin

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Behzod ijodining ayni kamolga yetgan davrida yaratilgan asarlar sirasiga kiradi” degan fikrni olg‘a surgan. Ikkinchisi, Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy” [8.376] asarini N.Komilov tarjima qilgan va 1994-yilda nashr qilingan va 2011-yilda har ikki asar bir kitob shaklidaqayta chop etildi. Kitobdan o‘rin olgan “Axloqi Muxsiniy” qismiga B.Abdulhalimov “Axloqiy merosimiz va kitobat san’atining noyob namunasi” va “Futuvvatnomai sultoniy” qismiga esa N.Komilov “Muallif haqida ikki hikoya” nomli so‘zboshi yozishgan. Har ikki sharqshunos olim yozgan so‘zboshilarni o‘qir ekanmiz, unda o‘quvchiga muallif hayoti, ijodi va uning ikki asari xususida batafsil ma’lumot berilganiga guvoh bo‘lamiz.

Husayn Voiz Koshifiy (asl ismi Kamoliddin, laqabi Voiz) (1442/1446, Sabzavor – 1505/4, Hirot) – shoир, adib, qomusiy olim, Temuriylar davri voizlik san’atining yirik namoyondasi. Arab, fors, o‘zbek tillarini yaxshi bilgan, adabiyot, fiqh, astronomiya, matematika, kimyo, mantiq, musiqadan o‘z davriga yarasha yaxshi ma’lumot olgan. U Qur’oni karim va hadislar mazmunini xalqqa pokiza va tushunarli, ta’sirli qilib yetkazgani, ma’rifat ulashgani hamda shu mazmunda asarlar yozgani uchun ulug‘ zamondoshlari o‘z davrida uni “buyuk axloq muallimi” deb e’tirof qilishgan. Koshifiy Sabzavor, Nishopur, Mashhadda (1455-68) tahsil olgan, Hirotda (1468-1504) yashagan, Jomiy va Navoiy bilan hamkorlikda faoliyat olib borgan. Asarlarini, asosan, fors tilida yozgan. U falsafa, axloq, tilshunoslik, siyosat, din tarixi, voizlik, she’r san’ati, mantiq kabi fanlarga oid 40 dan ortiq asarlar (Vikipediya ma’lumatida 200 dan ortiq deb ko‘rsatilgan – B.R.) ijod qilgan. Kitoblari: “Axloqi Muhsiniy”, “Kalila va Dimna”, “Risolai Hotamiya”, “Futuvvatnomi sultoniy”, “Iskandar oynasi”, “Anvori Suhayliy”, “Sab’ai Koshifiy”, “Javohir ut-tafsir”, “Mavohibi oliya”, “Maxsan ul-insho”.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida 459 nafar qalam ahli qatorida unga adabiy tazkira xarakteridan kelib chiqib, “Mavlono Husayn Voiz” nomli alohida fiqra yozgan. Birinchidan, uning taxallusi Koshifiy ekani, asli Sabzavorlik bo‘lib, hayoti davomida u o‘rgangan fanlar deyarli qolmagani, xususan, va’z, insho, astronomiya fanlari yuzasidan mashhur asarlar yozgani, tafsirlar bitgani, ikkinchidan, voizligi sabab ma’lum bir malomatga uchragani va bir yil bu sohadan chekingani va yana minbarga qaytgani, uchinchidan esa “Javohir ut-tafsir” kitobini tilga olgani, izoh bitgani va shoир ekani, bayt shaklida lirikasidan misol keltirganidir. Chunonchi: “Mavlono Husayn Voiz – “Koshifiy” taxallus qilur, Sabzavorliqdur. Yigirma yilga yaqin borkim, shahrdadur va Mavlono Zufunun va rangin va purkor voqe’ bo‘lubtur. Oz fan bo‘lg‘aykim, dahli bo‘lmag‘ay. Xususan, va’z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysida mutaayyin va mashhur ishlari bor va musannofatidin biri “Javohir ut-tafsir”durkim, “Al-Baqara” surasin bir mujallad bitibdurkim, munsifi qat’

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bila yuz juz bo‘lg‘ay...” [1.119-120]. Yana Alisher Navoiy “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida o‘zining Abdurahmon Jomiy vafotiga bag‘ishlab yozgan dil o‘rtar marsiyasini yil oshida Koshifiy minbarda ta’sirli o‘qiganini eslagan va nomini tilga olgan: “Bir yilg‘acha olam ahlig‘a umuman va Xurosonu Hirot ahlig‘a xususan, motam erdi. Yil bo‘lg‘ondin so‘ngra Hazrati Sulton sohibqiron alarning yil oshin ba’se e’zoz va e’tirom bila podshohona berib, muxlislaridin ba’zi ul hazratning mutahhar marqadi boshida oliy imorat solib, xuffozu imom va muqriyu xuddom tayin qildi. Va nazm ahli ko‘p ta’rixlar aytib o‘qudilar. Ul jumladin xuruf roqimi (Navoiyning o‘zi) bu marsiya bila ta’rixni aytib, yil oshi tortarda Sulton sohibqiron oliy majlislarida o‘tkardi va hukm bo‘ldikim, Mavlono Husayn Voiz minbar ustida o‘qudi...” [2.79-80] O‘zbek va tojik adabiyotshunosligida ma’lumki, Navoiyning mazkur marsiyasini S.Ayniy, S.G‘aniyeva va boshqa olimlar tadqiq qilishgan. Ayniqsa, S.Ayniy tahlili va bahosi fanda mashhur.

Husayn Voiz Koshifiy to‘g‘risida tarixchi G‘iyosiddin Xondamir “Xulosat ul-axbor”da xabar yozgan. Ya’ni, u asarida “Naslu nasabi oliy Amir Alisherning lutfu marhamatlaridan bahramand bo‘lgan va shu kunlarda hayot bo‘lib, o‘zlarini uning duogo‘ylari hisoblab yurgan musulmon akobirlari, buyuk olimlar va mashhur fazl egalari zikrida” nomli fasl bitgan. Muallif unda Navoiydan inoyat va iltifot, himmat ko‘rgan va tarbiyasi ostida panoh topgan o‘ttiz sakkiz nafar fozillar hamda xushxat kotib, sozandalar bilan birga jami ellik olti kishi nomini tilga olgan va har biriga qisqa va lo‘nda tavsif bergen. Shular qatorida Koshifiyni ham esga olgan va shunday xarakteristika yozgan: “Mavlono ma’qul va maxsus ilmlarning barchasidan to‘la naflangan va bahramanddir. Hozirgi vaqtida sharhida Xuroson diyorida ul janobga teng keladigan kishi topilmaydi. Tengri kalomining tafsiri hamda hazrati risolatpanoh payg‘ambar hadislарining ma’nilarini minbardan turib g‘oyatda pokiza va ma’noli qilib tushuntiradi. Haftada uch marta seshanba kuni sultonning xonoqohida, juma kuni ertalab dorussayodat Sultoniyada, namoz o‘qilgandan keyin olihazratning Jome masjidida xaloyiqqa va’z-nasihat qilish bilan mashg‘ul. Ilgari chorshanba va payshanba kunlari yagona pir Xoja Abulvalid Ahmad mozorida hamda santalatshiorliq janob mirza Sulton Ahmad qabristonida xaloyiqqa to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish bilan ham band bo‘lardi. Ul janob nujum ilmida ham zo‘r mahoratga ega edi, chunonchi uning ta’birlari qazo o‘qi singari bexato bo‘lardi. Uning balog‘atoyotlik hamda fasohat sifatlik kitoblari ko‘p va behisob bo‘lib, ularning ko‘pi olimaqom amir Alisherning atoqli nomi bilan ziynatlangan. Amir Alisherning inoyat va iltifoti ul janobning hol sahifasiga hammavaqt tushib turadi...” [9.70-71].

Koshifiy shogirdlaridan sanalmish adib Zayniddin Vosify “Badoye ul-vaqoye”da, birinchidan, o‘zini Koshifiyning iste’dodli shogirdi sifatida tanishtirgan,

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ikkinchidan esa ustozi ruhidan yetgan ma'naviy quvvat borasida gapirgan, uchinchidan esa ustozining vafotidan keyin ham el orasida uning yaxshi, sharfli nomi ikkinchi umr sifatida davom etayotganiga urg'u bergen. U bitgan hikoyalarning bir lavhasini tamsil qildik: O'qiyimiz: “O'sha kecha Mavlono Husayn Voiz menga valilar martabasida ko'rindi. O'zimni zaif, kasal sezib, minbarga qadam qo'ymoqqa kuchim yetmasdi. Ul aziz ruhiga sig'indim: ko'z oldimda namoyon bo'lib, “Chiq, g'am yema. Men madadkoringman”, dedilar. Menda quvvat paydo bo'ldi. Turdim-u kuchli jur'at bilan minbarga chiqdim” [5.161]. Voqeа bayoniga ko'ra, u besh ming odam yig'ilgan katta davrada vozlik qiladi hamda uni va ustozi Koshifiyi el olqishlaydi.

Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi muxsiniy” asarini 1495 yilda yozgan. Asar Sulton Husayn mirzoning o'g'li, temuriy shahzoda, Marv hukmdori Abulmuhsin mirzoga (1472-1507/08) bag'ishlangan. Fikrimizcha, ma'lum ma'noda asar Imam Buxoriyning odob-axloq haqidagi 645 ta hadisni o'zida jamlagan “Al-adab al-mufrad” [4.480]. hadislar to'plamini eslatadi. O'sha asar an'anasi va ta'sirida yozilgan, degan farazimiz yo'q emas. Muallif ma'lumot yozgan tushuncha va atamalar o'z davrida va keyingi zamonlarda ham davlat mulozimlarini tayyorlashda, jamiyat va insonlar munosabatini tartibga solishda, yosh avlodni tarbiyalashda yordam bergen, chunki hakimlar:

“Adab tojist az nuri ilohiy,

Bineh bar sar, birov har jo ki xohi” [5.133].

Tarjimasi: Adab ilohiy nurdan hosil bo'lgan tojdir. Uni boshingga qo'yu qayerga xohlasang boraver, kamlik ko'rmaysan.

“Axloqi Muhsiniy” 40 bobdan iborat. Asar basmala bilan boshlangan va keyin u “Chunki chiroyli xulq Xudoyi taolo oliy hikmati nurlaridan biridir...” yoki “Zero, qiyomat tarozisida tortiladigan narsa yaxshi xulqdir” deb mazmunli izoh bergen, oyatlar keltirgan. Sulton Husayn Boyqarova Muhsin mirzoga bag'ishlab qit'alar yozgai. Koshifiy o'zini ham tanishtirib o'tgan, so'ngra “Podshohlar 40 ta xislatga rioya qilishlari zarur”, deb aytgan va “Bu 40 ta sifat risolaning 40 da bobida munshiylar takallufidan xoli tarzda bayon etilgan. Har bir bobda yaxshi odamlar xulqi haqida o'z vaqtida eshitilgan va yozib olingan rivoyat va shunga munosib hikoyatlar keltirildi. Tavfiq va madad Allohdandir” [7.17]. Bu ma'lumotda go'yo Koshifiy asar uchun materiallar to'plaganiga va qanday usulda yozganiga ham tushuntirish bergandek. Shundan so'ng xislatlarning har biri alohida bobda ko'rsatilib, bayon qilingan, masalan, “1-bob. Ibodat bayonida”, “2-bob. Ixlos bayonida”, “3-bob. Duo qilish bayonida”, “4-bob. Shukr bayonida” kabi. Keyingi boblarda esa podshoh va yuksak martabali davlat arboblarining vazifalari, axloq-odobi, rahbar ma'naviyati, mulozimlari bilan munosabati juda ko'plab tarixiy

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida yoritilgan. Kitobda boshqa odob va axloqqa oid mashhur asarlarga iqtibos va havolalar mavjud. Shuning uchun Koshify kamtarlik bilan o‘zini musannif, ya’ni asar tuzuvchisi deb ko‘rsatadi. 40 bobda 60 dan oshiq tushunchalar sharhlangan. Sharhlar isbotiga Qur’on oyatlaridan, hadislardan, hakimlarning hikmatlaridan, ulug‘ shoirlarning shohbaytlaridan, adiblarning esa yaxshi xulqqa, ahloqqa oid fikrlari tamsil qilib keltirilgan. Masalan, muallifadolat, adl tushunchalariga ta’rif berar ekan, birinchidan, Ollohning al-adl sifatiga, ikkinchidan,adolat haqidagi oyatlariga, uchinchidan, hadislaringa, to‘rtinchidan, hikmatlariga, beshinchidan esa, barcha fikrlarni jamlab adl bo‘yicha eng mashhur qahramon No‘siravon Odil nomi tilga olinadi. Endi kitobxonda savol tug‘iladi. No‘siravon Odil kim? U islomgacha yashagan hukmdor, kofir, lekinadolati ustun bo‘lgan. Navoiy talqini bilan javob bersak, ya’ni u “Tarixi muluki Ajam”da u haqda katta bir fiqra yozgan. Muhammad s.a.v.ning “Men No‘siravon Odil zamonida tug‘ildim, u kofir edi, ammoadolati ustun edi” [2.241-244], degane’tirofini keltirgan. Bu xabar Navoiyning ko‘plab asarlarida tilga olingan. “Hayrat ul abror”da adab, vafo haqida boblar yozgan. Qahramon sifatida ikki vafoli yor, ikkir vafoli do‘stning bir-biriga ko‘rsatgan vafosi va ahdiga Amir Temur, Chingizxondek jahongirlar hayratga tushadi va ularning vafo va ahd hurmat ko‘rsatishadi Demoqchi bo‘lganimiz, mana shunday tasvir va talqinlarni “Axloqi muhsiniy”da ham o‘qiyimiz.

Xulosa shuki, birinchidan, Navoiyning Koshify haqida “va’z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysida mutaayyin va mashhur ishlari bor”, degan yuksak e’tirofi, marsiyani “...yil oshi tortarda Sulton sohibqiron oliv majlislarida o‘tkardi va hukm bo‘ldikim, Mavlono Husayn Voiz minbar ustida o‘qudi...” xabari, Xondamir tavsifi, shogirdi adib Vosify bitgan xotira hikoyalar uning ibratli hayot yo‘lidan xabar beradi. Ikkinchidan, “Axloqi muhsiniy” asari uning adib, voiz, faqh sifatidagi siymosi va yuksak ma’rifati, mahorati bilan tanishtiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

(Использованная литература / References):

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13-жилд. Тошкент: Фан, 1997.
2. Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. МАТ. 16-жилд. Тошкент, 2000.
3. Алишер Навоий. Хамсат ул-мутахаййирин. МАТ. 15-жилд. Тошкент: Фан, 2000.
4. Имом Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад. Тошкент: Мовароуннахр нашриёти, 2006. 480 б.
5. Зайнiddин Восифий. Бадое ул-вақоєъ. Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
6. Навоий замондошлари хотирасида. Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.
7. Хусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи Мухсиний. Форс тилидан М.Ҳасаний, А.Ҳакимжонов таржимаси. Нашрга тайёрловчилар А.Мадраимов, Н.Аминов. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010. Факсимелеси билан 664 бет.
8. Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи сultonий. Ахлоқи Мухсиний. Тошкент:

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011. 376 бет.

9. Хондамир. “Хулосот ул-ахбор”/ Б.Ахмедов таржимаси. Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи Б.Ахмедов. Тошкент, 1985.